

O'ZBEK TILINI DARAJALANTIRISH

To'ychiyeva Sitorabonu

ToshDO'TAU talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilini darajalashtirish zarurati, uning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritiladi. Chet tillar tajribasi asosida o'zbek tilidagi leksemalarni A, B va C darajalarga ajratish tamoyillari tahlil qilinadi. Fe'l va sifatlarning semantik murakkabligi sinonimik qatorlar misolida izohlanib, til o'rganuvchilarning kompetensiyasini baholashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, darajalashtirish, til kompetensiyasi, leksik daraja, semantik murakkablik, sinonimiya, fe'llar, sifatlar, CEFR, milliy sertifikat, o'quv metodikasi, leksik kompetensiya.*

Har bir til vakilining o'z tilida semantikasi kuchli bo'lgan so'zlarni qo'llashi uning sa'viyasini, uning shu tilni bilish darajasini ko'rsatib turadi. Ammo hozirgi kunda ko'plab yoshlar orasida so'zlashish sa'viyasi tubdan o'zgargan. Ya'ni ayni paytda dunyo tan olgan chet tillari ingliz tili, rus tili, arab tili va shunga o'xshash boshqa tillarning ommalashuvi o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborni yosh avlod orasida susaytirmoqda. Ingliz tili va shunga o'xshash boshqa tillarning shiddat bilan keng ko'lamda yoyilib borishining bir necha sabablari mavjud bo'lib ularni ko'rib o'tamiz:

1. Globalizatsiya: Ingliz tili xalqaro aloqa, savdo va diplomatiyada asosiy rol o'ynaydi, bu esa uni kengaytiradi va rivojlantiradi.

2. Texnologiyalar: Internet va zamonaviy kommunikatsiya vositalari ingliz tilida ko'p kontent ishlab chiqariladi, foydalanuvchilarni jalb etadi.

3. Ta'lim va ilm-fan: Ko'plab ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlar ingliz tilida olib boriladi, bu esa tilni o'rganishni talab qiladi.

4. Madaniyat va ommaviy axborot: Hollywood filmlari, musiqalar va boshqalar orqali ingliz tili keng tarqalgan bo'lib, avlodlar o'rtasida ta'sir qiladi.

5. Iqtisodiy imkoniyatlar: Ingliz tilini bilish ko'plab ish beruvchilar uchun

muhim faktor bo'lib, shu sababli ko'p odamlar uni o'rganishga intilishadi.(1)

Bularning barchasi ingliz tilining global miqyosda rivojlanishida muhim omillar hisoblanadi. Bundan tashqari jahonda keng miqyosda o'rganilayotgan tillarning darajalarga bo'linib o'rganilishi ularni mukammalroq o'rganilishiga asosiy sabab bo'lib kelmoqda. Quyida ayni damda ilg'or o'rganilayotgan tillarning darajalari va ularning qay tartibda o'rgatilishi ko'rsatib o'tilgan:

–A1 (Boshlang'ich):

– Oddiy va kundalik vaziyatlarda foydalanish uchun zaruriy so'zlar va iboralar.

– A2 (O'rta boshlang'ich):

–Tanish mavzularda oson tushunish va o'z fikrlarini ifodalash.

– B1 (O'rta):

– Tanish mavzularda tushunish, oddiy matnlar va nutqlar bilan ishlash qobiliyati.

– B2 (Yuqori o'rta):

– Nisbatan murakkab matnlarda ham tushunish va fikrlarni ifodalash imkoniyati, muammolarni hal qilishda erkinlik.

– C1 (Yuqori):- Murakkab matnlarni tushunish, uzun va talab qiluvchi nutqlarda ishtirok etish.

–C2 (Mutaxassis):

– Har qanday turdagi matnlarni to'liq tushunish, murakkab fikrlarni aniq va to'g'ri etkazish.(2)

Tillarni darajalashtirish O'zbekistonga ingliz tili bilan kirib keldi. Ingliz tili kirib kelar ekan, u bilan birgalikda uni o'rganadigan va o'rgatadigan manbaalar ham kirib kela boshladi. Ingliz tilini o'rganish uchun o'quv markazlar va hozirgi kunda maktablar ham darajalashtirilgan kitoblardan foydalanmoqda. Eng asosiysi esa bu kitoblardan foydalanish o'quvchilarning yuqori balli sertifikatlarni qo'lga kiritishda baland natija ko'rsatmoqda. Shunday ekan quyida ba'zi ingliz tiliga oid mashhur daraja kitoblarini keltirilgan:

1. "English File" – Bu kitoblar seriyasi aktsent va dialoglar yordamida tilni o'rganishni osonlashtiradi.

2. "Headway" – Yangi bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish uchun mo'ljallangan.

3. "New Cutting Edge" – Har bir dars o'z ichiga tinglash, o'qish va yozish faoliyatlarini oladi.

4. "Speakout" – Muntazam ravishda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantiradi va amaliy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

5. "Cambridge English" – Tayyorlanayotgan imtihonlar uchun mo'ljallangan kitoblar.

Bu kitoblarning har biri o'ziga xos metodologiya va yondashuvga ega bo'lib, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun tilni bosqichma-bosqich o'rganishda mukammal darajada yordam beradi.

Hozirgi vaqtda ingliz tilidan tashqari turk tilini o'rganishga ham talab ancha katta. Shundan kelib chiqqan holda turk tilini o'rganishda yordam beradigan ko'plab daraja kitoblari ham mavjud. Ular asosan boshlang'ichdan tortib ilg'or darajagacha mo'ljallangan. Turk tiliga oid ba'zi mashhur daraja kitoblarini keltirib o'tsak:

1. "Türkçe Öğreniyorum" – Boshlang'ichlar uchun tayyorlangan, asosiy grammatik qoidalar va so'z boyligini o'z ichiga oladi.

2. "Yedi İklim Türkçe Seti" – O'quvchilarga turk tilini o'rganish uchun qiziqarli va amaliy materiallar taklif etadi.

3. "İstanbul" – O'z ichiga zamonaviy turk tilini va madaniyatini oladi, har bir daraja uchun mos.

4. "Dilmer" – Turk tilida chuqur bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan darsliklar va materiallar.

5. "Açılım Türkçe" – Interaktiv yondashuv bilan tilni o'rganish imkonini beradi.(3)

Bu kitoblarning barchasi turk tilining darajalashtirilgan shaklida yozilgan bo'lib, eng sodda bo'limlardan to mukammaliga qarab o'sib boradi. Yuqorida keltirilgan kitoblar o'zga tilni o'rganayotgan har bir o'quvchida 4 ta ko'nikmani rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratgan bo'lib, ingliz tilida ham turk tilida ham bu tillarni o'rganuvchilar yozish, o'qish, tinglash va so'zlash darajalari orqali baholanadilar.

Chet tillarning ommalashuviga asosiy sabablar sanab o'tilganidek ularni o'zbek tiliga nisbatan o'zlashtirish ma'lum miqdorda oson

ekanligidir. O'zbek tilini o'rganish nafaqat o'zbek bo'lib tug'ilgan insonga balki, uni o'rganmoqchi bo'lgan chet el fuqarolari uchun ham mukammal va o'zbek tilini o'rganishda ular ancha qiyinchilikka duch kelishmoqda. Shunday ekan, o'zbek tilini rivojlantirish va darajalashtirish

bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:
– Ta'lim tizimi: Maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'zbek tilini o'rganishga e'tibor berish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash lozim;

– Uslub va so'z boyligini oshirish: O'zbek tilini bibliografiya, adabiyot va ommaviy axborot vositalarida faol ishlatish, yangi so'zlar yaratish va ularni kengaytirish zarur;

– Onlayn platformalar: O'zbek tilida ilmiy va ta'limiy resurslarni ko'paytirish, tinglovchilar va o'quvchilar uchun zamonaviy va interaktiv o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

– Madaniy tadbirlar: O'zbek tilida teatr, film va adabiy tadbirlar tashkil etish orqali tilni rivojlantirish va jamiyatda uning ahamiyatini oshirish;

–Va eng asosiysi o'zbek tilida darajalashtirilgan kitoblar va manbaalar ishlab chiqish va ularni ko'paytirish.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, darajalash tushunchasi ingliz tili bilan birgalikda kirib keldi, ya'ni o'quvchilarning bilish darajalarini baholash orqali chuqurroq tushunishimiz mumkin. Shunday ekan, hozirgi kunda yosh avlodni yanada o'z ona tiliga bo'lgan e'tiborni oshirish maqsadida, mamlakatimizda Milliy sertifikat tizimi joriy qilindi. Bu orqali talabalarni bir nechta fanlarning bilish darajalarini aniqlash imkonini yaratdi. Ushbu sertifikat orqali quyidagi fanlar bo'yicha imtihonlar o'tkaziladi: ingliz tili, ona tili va adabiyot, matematika, tarix, biologiya, kimyo, fizika va boshqa bir nechta fanlar.

Bunday sinovlar ona tili va adabiyot fanidan ham olib borilyapti, bu quyidagi tartibda bo'ladi:

Umumta'lim fanlarini bilish darajasiga qarab – A+, A, B+, B, C+, C darajali sertifikatlar beriladi.

Sertifikatlar **3 yil** muddatga beriladi.

Test natijalari xalqaro metodika – Rash modeli asosida hisoblanadi.

Unga ko'ra:

- 70 balldan yuqori ball olgan talabgorga **A+ daraja**;
- 65-69,9 ball olgan talabgorga **A daraja**;
- 60-64,9 ball olgan talabgorga **B+ daraja**;
- 55-59,9 ball olgan talabgorga **B daraja**;
- 50-54,9 ball olgan talabgorga **C+ daraja**;
- 46-49,9 ball olgan talabgorga **C darajali** sertifikat beriladi.(4)

Biz bilish darajalarini o'rganib chiqdik, endi e'tiborimizni o'zbek tilidagi darajalashtirilgan so'zlarga qaratamiz. O'zbek tilidagi har bir leksemaning semantik tarkibida darajalanish mavjud bo'lib, ular o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun katta qulaylik yaratadi. Masalan, ingliz tilida A darajada, B darajada va C darajadagi leksemalarning pastdan yuqoriga qarab murakkablashuvi kuzatiladi. Misol qilib oladigan bo'lsak, good-yaxshi sifati A darajadagi so'z bo'lib, bu so'zni A1 yoki A2 sa'viyadagi o'rganuvchilar o'z nutqida qo'llashi kuzatiladi. B va C darajasida ingliz tilini biluvchi til o'rganuvchilar esa good so'zi o'rniga better yoki great so'zlarini qo'llaydilar. Bu ularning shu tilini qanchalik mukammal bilishlarining isboti bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, o'zbek tilidagi leksemalarni darajalar asosida uch guruhga ajratish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular A, B va C darajalarning sa'viyasi borasida amalga oshadi. Bilamiz, ingliz, turk va boshqa tillarda bilish darajalari A darajadan yuksalib borib C darajagacha ko'tarilsa, o'zbek tilida C daraja eng quyi natijani ko'rsatadi. Ya'ni C eng past daraja, B o'rtacha bilish sa'viyasi va A eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. O'zbek tilidagi leksemalarni darajalashtirar ekanmiz, birinchi bo'lib e'tiborimizni fe'llarga qaratamiz. Bunda darajalanish qatorining eng muhim qurilish belgisi unda harakat va holatni anglatuvchi leksemalar ya'ni fe'llar sememalarida darajalanish kuzatiladi. C darajadagi harakat va holatni anglatuvchi leksemaga misol qilib "o'lmoq" so'zini olsak. "O'lmoq" so'zi — hayotning tugashi, biron bir organizm faoliyatining to'xtashi jarayonini ifodalaydi. Bu inson yoki hayvonning biologik faoliyati to'liq tugagani, ya'ni yurak urishi, nafas olishi va boshqa hayotiy jarayonlari to'xtagani ma'nosini bildiradi. "O'lmoq" fe'lining "hayotdan ko'z yummoq", "dunyodan o'tmoq", "vafot etmoq" kabi sinonimlari mavjud bo'lib, bular "o'lmoq" leksemasidan ko'ra yuqoriroq sa'viyada

ishlatiladi. Shunda "o'lmoq" so'zini C sa'viyaga tegishli so'z deb olsak, "vafot etmoq" B darajadagi, "hayotdan ko'z yummoq" va "dunyodan o'tmoq" fe'llari A darajada qo'llaniluvchi so'zlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Bu o'rinda *"Kechga yaqin yo'l ustida yarador leytenant o'ldi."* gapini olsak, bu gapda "o'ldi" so'zi oddiy ma'noni ifodalab, emotsional bo'yoqdorlik kasb etmagan. Ammo *"Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yil 26-dekabrda Hindistonning Agra shahrida og'ir kasallikdan vafot etdi."* gapida qo'llanilgan "vafot etdi" so'zi gapga biroz murakkablik bergan va "o'ldi" so'ziga nisbatan yuqoriroq sa'viya ko'rsatgan.

Bundan tashqari, leksemalarning semantik tarkibini dararajalashtirish jarayonida sifatlarni chetlab o'tib bo'lmaydi. Sifatlarni darajalashtirishda eng asosiy e'tibor narsa va predmetlar belgisining ortib yoki kamayib borishiga qaratiladi. Bu borada "aqlli" so'zini misol qilib olsak, "aqlli" deb aslida tushunchali, bilimli va aqlli qarorlar qabul qila oladigan shaxslarni tushuniladi va uning "ziyrak", "esli", "oqil", "dono" hamda "esli-hushli" kabi sinonimlari mavjud. "Aqlli" so'zini kichik yoshdagi va o'zbek tilini endi o'rganayotgan insonlar ham o'z nutqida hech qanday qiyinchiliklarsiz qo'llay olganligi sababli bu so'z C sa'viyadagi so'zlar qatoriga kiritiladi. Ammo "esli", "esli-hushli" va "dono" so'zlarini unga nisbatan murakkabroq va ko'proq bu so'zlar badiiy adabiyotlarda va insonlarning so'zlashuv jarayonida qo'llaniladi. *"Nodon so'zlar-dono ibrat olar"* maqolida ham "dono" so'zi "aqlli" ma'nosida kelgan bo'lsa ham maqolning ta'sirchanroq chiqishi uchun shu so'zdan foydalanilgan. Shu sababli "dono" va "esli" so'zlari B sa'viyada qo'llaniluvchi so'zlar qatoriga kiritilishi maqsadga muvofiq. "Ziyrak" hamda "oqil" so'zlariga to'xtalsak, bu so'zlar hozirgi kunda xalq tilida kamdan-kam ishlatilsa ham, badiiy adabiyotda faol qo'llaniladi va bu so'zlarni ko'proq til sa'viyasi jihatidan yuqori bilimli insonlar o'z nutqlarida qo'llaydilar. *"Keksalik toshi, g'am yuki ostida qaddi bukchaygan bu ziyrak chol ayollarning ahvoli ruhiyatini sezdi, angladi"*, *"Semiz qo'zining go'shti yaxshi, Oqil onaning — qizi"* gaplaridagi "ziyrak" va "oqil" so'zlari "aqlli" so'ziga qaraganda gapda murakkablik kasb etgan. Ana shu sababdan bu so'zlar A sa'viyasida qo'llaniladigan so'zlar qatoridan joy oladi.

Ana endi darajalanishni ravish soʻz turkumida koʻrib chiqamiz. Ravish – mustaqil soʻz turkumlaridan biri boʻlib harakat va holatning belgisini bildiradi. Bu oʻrinda biz ”qoʻqqisdan”, ”birdaniga”, ”birdan”, ”toʻsatdan” kabi leksemalarni tahlil qilsak, bu ravishlar harakatning kutilmagan paytda tez yuzaga kelganini ifodallaydi. ”Birdan” va ”birdaniga” soʻzlari boshqa soʻzlarga nisbatan C darajadagi soʻz hisoblanadi. Ammo ”qoʻqqisdan” hamda ”toʻsatdan” leksemlari esa ”birdan” va ”birdaniga” soʻzlariga qaraganda saʼviya jihatdan yuqoriroq oʻrinda turadi. *”Qoʻqqisdan berilgan bu savol oldida Qodirbek nima deyarini bilmay, tikilgancha qoldi.”* gapida ”qoʻqqisdan” soʻziga eʼtibor qaratsak, bu soʻz koʻp hollarda badiiy adabiyotda va baʼzan adabiy tilda soʻzlaydigan insonlar nutqida qoʻllanilishini koʻramiz va shu sababdan bu soʻz A darajadagi soʻz deb olinadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, oʻzbek tilining deyarli har bir til sathida darajalanish mavjud boʻlib, bu tilimizning borliqdagi mohiyatida oʻta muhim ahamiyatga ega. Oʻzbek tilini darajalashtirish ayni damda yoshlarni yanada oʻz ona tilisiga boʻlgan eʼtiborni kuchaytirish va ularda shu tilni oʻrganishga qiziqish uygʻotishda hamda oʻzbek tilini oʻrganmoqchi boʻlgan chet el fuqarolarining oʻzlashtirishlariga qulay imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bozorov O. Oʻzbek tilida darajalanish, Toshkent-1997.
2. G Muxtorova, D. Ibragimova. boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish faoliyatini tashkil etishning samarali usullari. - Pedagog, 2024. 480-484
3. Oybek. Quyosh qoraymas.T.,1971.
4. Hamid Gʻulom. Mashʼal. 4-jildlik. 2-jild.
5. Maqsud Qoriyev. Oydin kechalar. Toshkent,2005.
6. Raxmonov, A. (2025). Mutarriziyning “Risalatun fin-nahv” asarida til oʻqitish usullari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.

7. Jurayeva, N. G., Raimjanova, N. K., Djamalutdinova, B. R., Khorunova, S. B., & Jumaeva, S. D. (2021). Creative features of non-traditional lessons in English lesson in the sphere of higher education.

8. Abdurashidovna, A. K. (2024). The impact of extensive listening on the listening comprehension skills of EFL university students. In *International Conference on Interdisciplinary Science* (Vol. 1, No. 10, pp. 236-238).

9. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.

10. Turaeva, U. (2021). Comparative study of uzbek and english legal terms legal linguistics: historical foundations, basic concepts and aspects. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.6).

11. Umida, T. Characteristics, Methods and Challenges of Translating Law Terminology. *JournalNX*, 6(11), 312-316.

12. Асилова, Г. А. (2025). Реалии узбекского языка в переводе и лингвострановедении. *Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Лингвистика*, 22(1), 5-10.